



CANADA



CANADA

## YAQIN SHARQDAGI SIYOSIY HOLAT YOHUD KURDLAR MOJAROSI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*3-bosqich talabasi*

**Mustafaqulov Otabek Panji o'g'li**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*3-bosqich talabasi*

**Sultonov Abdulaziz Jamshid o'g'li**

**Annotatsiya:** Bu maqolada Yaqin Sharqda olib borilayotgan yirik davlatlar siyosiy harakatlari turli xil muommolar haqida xususan Kurdlar mojarosini ko'rib chiqamiz. Bu muommolar qanday paydo bo'ldi? Ularga yechim bormi? Shularni tahlil qilamiz.

**Kalit so'zlar:** *Kurdiston, katta o'yinchilar, milliy davlatchilik, Yaqin Sharq, transport, neft, gaz, shia, sun'iy, tarix, manfaat, Eron, Iroq, Suriya, Turkiya, arablar, muommo.*

### KIRISH

Bugungi kunda dunyo siyosiy maydonida mojarolar yetarlichani tashkil qilmoqda. Xususan Yaqin sharq mintaqasi o'choq hudud deb aystsak mubolag'a bo'lmaydi. Dunyoning eng qaynoq nuqtalaridan biri hisoblangan Yaqin Sharq mintaqasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchayib bormoqda. Bu mintaqqa o'zining geosiyosiy joylashuvi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu omil mintaqaga bo'lgan qiziqishning yanada ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Yaqin Sharq dunyo siyosiy xaritasida bir asrlik tarixga ega keskinlik o'choqlarining mavjudligi, diniy, milliy va madaniy rang-baranglikka boy bo'lgan mintaqqa sifatida alohida o'rinni egallaydi. Mintaqqa bo'lgan qiziqishning doimiy ortib borishi mintaqaning geografik chegaralari borasidagi qarashlarni ham o'zgartirib kelmoqda. Dunyoning gegemon davlatlarining manfaatlari aynan shu mintaqada kesishmoqda. Aynan gegemon davlatlar urushmayotgan bo'lsada orqadan aralashayapdi. Nega aynan Yaqin Sharq? Yaqin sharq jahon siyosatida bir qator omillarga ko'ra muhim o'rinni tutadi: Birinchidan, Yaqin Sharq – Osiyo, Afrika va Yevropa kesishgan mintaqada joylashgan. Bundan tashqari, geosiyosiy ahamiyati jihatidan Kavkaz va Markazi Osiyo bilan birgalikda chegaradosh sifatida qaralib, AQSh dunyo gegemonlik strategiyasida juda muhim o'rinni egallaydi. Ikkinchidan, Yaqin Sharq mintaqasi jahonning muhim transport koridori hisoblanadi, hamda mintaqqa Osiyo, Afrika va Yevropani o'zaro bog'laydigan transport yo'laklari va eng muhimi energetikaga eng boy hududl bo'lib, neft va gaz yo'laklari qoq markazi hisoblanadi. Uchinchidan, Yaqin Sharq dunyo aholisining deyarli yarmi e'tiqod qiladigan uch eng yirik jahon dinlari: islom, yahudiy va xristian dinlarining kelib chiqish markazi



hisoblanadi.<sup>18</sup> Bu yerdagi siyosiy mojaralar, Kurdlar muommosi, shia-sun'iy, etnik-diniy kelishmovchiliklarni keltirib o'tishimiz mumkin.

### ASOSIY QISM

Kurdlar o'zi katta tarixga ega xalqlardan biri hisoblanadi. Tarixchilarning fikricha Kurdlar Hind-Yevropa qavmining Fors tarmog'iga mansubdirlar. Qadim zamonlarda Eron va Yefratiya oralig'ida joylashgan tog'li hududlarda Mitanni, Kassitlar qirolliklari navbati bilan xukmronlik qilishgan. Miloddan avvalgi 612-yilda kurdlarning ajoddlari bo'lmish medelar qudratli Ossuriya podsholigini yengib, butun Eron va Anatoliya hududida yangi imperiyaga asos soladilar.

Medelarning hukmronligi atigi bir asrga cho'ziladi, lekin ularning dini va sivilizatsiyasi Aleksandr Makedonskiy kelgunga qadar Eronda saqlanib qoladi. Xuddi shu davrdan to Islomning tug'ilishiga bo'lgan vaqt mobaynida kurdlarning taqdiri Eronni navbatma-navbat boshqargan yirik imperiyalar: Saljuqiylar, Parfiya va Sosoniylarga bog'liq bo'lib qoladi.

X asrning ikkinchi yarmida Kurdiston 4 yirik kurd sulolari tomonidan bo'lib olinadi. Bular — shimolda Shaddadidlar (951-1174), sharqda Hasanvohidlar (959-1015) va Banu Annaz (990-1116), g'arbda Diyorbakir Marvonidlari (990-1116). Bu sulolalardan qaysi biridir agarda Markaziy Osiyodan ko'chmanchi qabilalar bostirib kelmaganda butun kurdlarni birlashtirib, yagona kurd davlatini tuzishi mumkin edi. Eronni bosib olib, Bag'dodni siqib qo'ygan Saljuqiylar kurd sulolalarini birma-bir bo'ysundirishadi. Tahminan 1150-yilda Sulton Sanjar Kurdistonda alohida viloyat tashkil qiladi.

Saljuqiylarning qulashidan 12 yil o'tib mashxur Salohiddin tomonidan asos solingan kurdlar sulolasi- Ayyubiylar (1169-1250) to XIII asrdagi Mo'g'ullar bosqiniga qadar musulmon dunyosida yetakchilikni o'z qo'liga oladi. Yevropalik salibchilarga qarshi kurashlari bilan nom qozongan Salohiddinning imperiyasi Butun Kurdiston, Suriya, Misr va Yamanni o'zida birlashtirilgan edi.

XV asrning yarmida kurdlar Turk-Mo'g'ullardan qutiladi. Kurd viloyati avtonomligini saqlab qoladi, lekin u amalda mayda sulolar orasida bo'linib ketgandi.

XVI asrning boshlarida Kurdiston Usmoniylar va Eron o'rtasidagi asosiy raqobat maydoniga aylanadi. Ikki buyuk davlat iskanjasiga tushib qolgan Kurdiston, tabiiyki, siyosiy jihatdan tarqoq holga kelib qoladi, birlashishga imkon qolmaydi. 1514-yilda Usmoniylar Eronning ustidan kichik g'alaba qozonishadi, lekin forslar hali to'liq mag'lub etilmagandi. Shu sababli Turkiya Eron chegarasiga doimo xavfsirab qarardi. Shunday vaqtida nufuzli kurdlardan bo'lgan Idrissi Bitlissi turk sultoniga kurd zodagonlarining barcha xuquqlari, imtiyozlarini qayta tiklash, o'z davlatlarini tuzishga izn berish berishni so'rab, buning evaziga mabodo Eron Usmoniylarga qarshi urush ochgudek bo'lsa, kurdlar Turkiya chegaralarini muhofaza etishlarini taklif qiladi. Sulton

<sup>18</sup> Muhammadsidiqov, M. (2019) Xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Toshkent



Salim Bitlissining taklifini qabul qilib, sodiqligiga ishonishi uchun barcha kurd zodagonlari bilan ko‘rishib chiqadi. Shu tariqa Turkiya va Kurdiston ittifoqchilarga aylanadilar.

Bu kelishuv tufayli Kurdiston deyarli 3 asr davomida tinch yashaydi. Usmoniyarning Kurdistonda bir qancha garnizonlari bo‘lishiga qaramay, hududning asosiy qismi kurdlar tomonidan boshqarilar edi. Bu vaqtda Kurdistonda 17 ta knyazlik mavjud bo‘lib, hammasi nasldan-naslga qolardi. Vaqt-vaqt bilan markaziy hokimiyat bu knyazliklar ishiga aralashib turishiga qaramay kurdlar va Usmonlilar XIX asrning boshlarigacha tinch-totuvlikda yashadilar. Turkiya uchun kurdlar Eronga qarshi qalqon edi, ularga ishongan Usmoniyalar boshqa frontlarda xotirjam jang qilardilar. Kурдлар мamlakatni deyarli mustaqil boshqarardilar. Mamlakat siyosiy jihatdan bo‘linib ketgan bo‘lsa ham, xuddi shu davrdagi 350 ta avtonom davlatga bo‘linib ketgan Germaniyaga solishtirganda Kurdistoning siyosiy holati ancha yaxshiroq edi. Ularning eng katta muommosi yagona Kurdiston davlatiga asos solish. Ma’lumotlarga qaraganda kurdlar taxminan dunyo bo‘yicha 40 mln atrofida deyiladi. Ular asosan Turkiya, Eron, Iraq, Suriya va boshqa davlatlarda yashashadi. Shuncha aholiga ega bo‘la turib o‘z davlatiga ega bo‘lmagan kamdan kam xalqlardan biri hisoblanadi. Kурдлар о‘rta asrlarda Usmoniyalar davlati tarkibida tinch yashab kelgan. Ammo XIX asrda milliy davlat qurish Fransuz davlatining asosiy g’oyasiga aylandi. Germaniyada keng dunyoqarashli kishilar barcha kichik knyazliklar yagona milliy davlatga birlashishni xohlardi. Pan-Germanizm, Pan-slavyanizm va Pan-Turkizm kabi boshqa milliy harakatlarni ham uyg’onishiga turtki berdi. Bu g’oyalar keyinchalik, 1830-1839-yillarda Kurdistondagi Ravandoz hokimi Mir Muhammadni yagona Kurd davlati uchun kurashga ilhomlantirdi. XIX asr asr ikkinchi yarmi Kurd ozodlik harakatlari bilan o’tadi. XX asrga kelib ham mustaqil Kurdiston davlati tuzish harakat to’xtamadi. Hatto yirik davlatlardan yordamlar ham so’raldi. Shundan keyin 1925-yil Millatlar Ligasi tomonidan Kurdiston deya atalib kelinayotgan diyor to’rtga: Turkiya, Suriya, Eron va Iroqqa bo‘lib yuborildi. Hozirgi kunda ular birlashish va Kurdiston davlatini tuzish uchun harakkatlarni amalga oshirib turadi.

O‘zi kurd muammosi qanday kelib chiqdi? Bir qarashda muammo davlatchilik qurish bilan izohlanadi. Lekin undanda murakkab jarayon bor. Avvalo davlatchilik uchun kerak bo‘lgan obyektiv subyektiv sabablarni sanasak:

- Yagona Kurdiston davlat chegarasi bu to’rtta davlatning suverentetiga tahdid soladigan chegarada joylashgan ( bu degani 4 ta davlat bilan nizo);
- Kурдлarning etnik kelib chiqishiga qarasak ham bir necha turlarga bor: Turkiy kurdlar, Eroniy kurdlar. Bu millatning kelib chiqish tarixi ham turlicha qarashlar mavjud bo‘lib ayni bir nom bir necha tog’li xalqlarni jamlagan bo‘lishi mumkin. [ Arab manbalarida Ali ibn Ali Tolib ( r.a) va Ziyod ibn Abih o‘rtasidagi yozishmada Kurd atamasining ishlatalishi, ularning arab diyoridagi xo’jalik hayoti haqida ma’lumot berilgan. Shunga ko‘ra ba’zi manbalarda ular Arabiston diyoriga Yamandan forslar



o'rtasiga ko'chib o'tganligini bildiradi. Yana bir guruh tarixchilar ularni shumerlar bilan zamondosh bo'gan desa Muhammad Amin Zakiy qadimgi kurdlar Kavkaz xalqi ammolar Oriylarga aylangan degan. Aynan mana shu Oriy kelib chiqish guruhlari asosi dinga borib taqaladi. Ya'ni islomdan oldingi dinlari – Zardushtiylik ular Oriy xalqlari orasida tarqalmagan bu esa jumboq. Firdavsiyning shohnomasida Kurd atamasi bu xalqning jasorati tufayli qo'llanilganligini tasdiqlaydi. Bu o'rinda bu xalqning o'zi haqidagi tarixiy tasavvuri alohida ahamiyatga ega. 1596-yilda Amir Sharafxon Bitlisiy tomonidan yozilgan "Sharinoma" asarining kirish qismida peshdodidi sulolasi taxtiga Jamshidning o'rniga o'tirgan Zolim Zohak haqidagi afsona va Solomonning surgun qilingan avlodlari afsonalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.];

- Kurdlarning bir necha etnik guruhga bo'linishi bu ularning birlasholmaganiga bir sababdir. Bu sababdan katta kuchlar unumli foydalanishmoqda. Salkam 40 mlniga yaqin bo'lgan bu xalqning davlat tuza olmaganligi bu unuing bir necha tomonlardan qo'llab-quvvatlanganligidan izohlanadi. Suriya va Iroqdagagi kurdlar siyosiy beqarorlik tufayli o'z ta'sir zonasiga ega bo'lgan va bu hududda kurdlar yagona ittifoqqa va boshqaruvga ega. Bu hudud aynan Turkiya yaqinida joylashgan bevosita Turkiya buni o'zi uchun xavf deb biladi. Shu sababli Turkiya Kurdiston ishchi partiyasini terrrorchi tashkilot deb hisoblaydi. Suriya va Iroqda tez-tez harbiy operatsiyalarini amalga oshiradi;
- Eronda ham kurdlar [ ularning soni 6.5-8 mln atrofida] katta etnik guruh bo'lib neftga boy hududlarda istiqomat qilishadi. Eron ham Kurd xalqini jilovlab turadi va uni boshqa kurdlar bilan mustahkam aloqa qilishiga qarshilik ko'rsatadi. Ayni damda Kurdiston Davlati Eronning manfaatlariga ziddir. Ammo Eron shia kurdlarini qo'llab-quvvatlaydi bu unga mintaqada dastak vazifasini o'taydi;
- G'arbiy Yevropada siyosat uchun bu xalqlarning kelib chiqishini bi-biriga zid bo'lgan qarashlarni shakllantirishdi Minorskiy va Sovet Mar nazariyasi unga ko'ra kurdlar forslarga yoki Osiyo millatiga- armanlar, xoldelarga borib taqaladi.

#### XULOSA

Davlatchilik masalasi g'oyasining tarixga nazar tashlasak bu bir tomondan sun'iy tarzda shakllangan muommoga o'xshaydi. O'rta sharq dunyo uchun nihoyatda muhim geostrategic mintaqqa nafaqat resurslarga boy balki uning iqtisodiy salohiyati ham yuqoridir. [ Sanksiyalar girdobiga tushgan Eron hali ham rivojlanishda davom etmoqda va yaqin do'stlar ham topib bo'ldi]. Kurdlar muommosi O'rta sharqdagi yagona yirik muommo emas voqealar rivojini tizimli tahlil qiladigan bo'lsak barchasi bir-biriga ulangan.

Kurdlar uzoq tarix davomida garchi ulkan davlatga ega bo'lмаган bo'lsa [ba'zi tarixchilar Midiya imperiyasini aynan kurd larga nisbat berishadik], ammo bular mintaqani egallagan davlatlarda muhim o'rin tutgan ayniqsa arab xalifaligi davrida ular ishonchli himoyachilar hisoblangan. Sulton Sanjar davrida mintaqaning ma'lum



qismi va Kavkazning Saljiquylarga tegishli qismida Sultonning ukasi tasarrufida bo'lgan. Usmoniyalar davrida mintaqadagi kurdlar erkin yashashgan.

Endi qanday XX asrda bu xalqning davlat qurish istagi keltirib chiqargan degan savolga javob topishga harakat qilamiz. Jalon urushlari va Usmoniy turklarning parchalanishi arab-isroil urushlari, Saddam Husayn zulmi, sobiq mustamlakachilarining bu yerdagi fitnalari va eng oxirgilaridan AQSHning Iroqqa bostirib kirishi yangi davlatga ehtiyoj tug'ildi chunki ular xavfsiz va barqaror yashashni hamda barqaror rivojlanishni istashadi, huddi boshqa xalqlar singari. Ammo Kurdlarning o'zi ayni damda bir va ko'p millatlidir huddi shuningdek e'tiqodi ham turlicha ular orasida ham shia, sun'iy keskinligi mavjud. Mana shu richaklar orqali katta o'yinchilar mintaqaga hukmronligida foydalanishmoqda. Nazarimizda davlatning o'rniiga har bir davlatda joylashgan kurdlar huquqlari kafolatlanishi va himoya qilinishi kerak. Shuning uchun mintaqaga rahbarlari avvalo kelishishi lozim. Ayni damda esa mintaqadagi uch katta kuchning bir-biriga qarshi muommolari bor.

### **FOYDALANUVCHI ADABIYOTLAR:**

1. Muhammadsidiqov, M. (2019) Xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Toshkent.
2. "KURDLAR MUAMMOSI YAQIN SHARQDAGI SIYOSIY BEQARORLIKNING TA'SIRCHAN OMILI SIFATIDA", maqola. Saidxon Saidolimov O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Siyosiy fanlar doktori, professor Gulzoda Abdusamatova O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Xalqaro munosabatlар yo'nalishi 4-bosqich talabasi.
3. Nazarova F. Yaqin Sharqdagi milliy-etnik munosabatlarda kurdlarning o'rni. Ilmiy risola. 2021 2. Farhod, K. (2021).
4. The problem of ethnic kurds in the middle eastern region: the history of origin and evolution. Russia and the moslem world, (1 (311)), 67-73. 3.
5. Каримов, Ф. Э. (2020). ПроблемаэтническихкурдоввБлижневосточномрегионе: историявозникновенияиэволюция. Россияимусульманскиймир, (3 (317)), 65-71
4. Акбаров, Х. Ў., Абдуллаев, Б. И., & Мирзаев, М. А. Ў. (2021). АКУСТИК СИГНАЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНГАН ҲОЛДА КЕСИШ ЖАРАЁНИДА КЕСУВЧИ АСБОБ МАТЕРИАЛЛАРИ ТАЪСИРИНИ ВА КЕСИШ ШАРОИТЛАРИНИ ЎРГАНИШ. Scientific progress, 2(2), 1614-1622.
5. Иванова, В. П., Цыпкина, В. В., Акбаров, Ф. А. У., Носирова, Д. А., & Муминов, Х. А. У. (2020). Влияние улучшения технологии изготовления токопроводящей жилы на эксплуатационный характеристики кабельно-проводниковой продукции. Universum: технические науки, (11-5 (80)), 29-34.
6. Akbarov, A. K. (2012). Communication Approach in English Through the Internet. Cambridge Scholars Publishing.

7. Ким, С. Г. (2022). РИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ОБЛАСТИ ЗАЩИТЫ ОТ СИЛЬНЫХ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЙ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 11-14.
8. Turgunov, E., Abdumajidov, I. B. O. G., Anvarov, A. A. O. G., & Valiev, R. A. O. G. (2022). MOYLASH MATERIALLARINING QOVUSHQOQLIK XUSUSIYATLARIGA HARORAT TA'SIRINI O'RGANISH. Academic research in educational sciences, 3(1), 419-425.
9. Джина, Ж., & Личман, Е. Ю. (2021). СКРИПЧНОЕ ИСКУССТВО СОВРЕМЕННОГО КАЗАХСТАНА. Студенческий форум, 10.
10. Горшкова, Е. А., & Акбаров, А. Н. О. (2021). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ РОССИИ. In Участие образовательных организаций в противодействии коррупции (pp. 43-48).
11. TAKHIROVA, F. A., ALIKHANOVA, N. M., KHAYDAROVA, F. A., ALIMOV, A. V., BERDYKULOVA, D. M., AKBAROV, Z. S., ... & ROMANOVA, L. D. БИОМЕДИЙНА ВА АМАЛИТ ҲЕУРНАЛИ ҲЕУРНАЛ БИОМЕДИЙНЫ И ПРАКТИКИ JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE.
12. Abdugafurovich, T. T. (2021). In The Process of Educating Students of the Faculty of Military Education in the Spirit of Patriotismthe Invaluable Contribution and Significance of the Uzbek People to the Victory Over Fascism (Dedicated to the 76th anniversary of The Victory of the Seco. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 2(4), 90-93.
13. Турғунбоев, Т. А., & Убайдуллаев, С. С. (2022). ВАТАНСЕВАРЛИК ВА МАЙНАВИЙ ТАРБИЯ ҲАҚИДА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 353-355.
14. Турғунбаев, Т. А. (2021). Вклад и значение узбекского народа в победу над фашизмом (к 76-летию Победы во Второй мировой войне). Молодой ученый, (18), 485-488.
15. Abdugafurovich, T. T. (2021). The Importance of Forbidden Islam in Spiritual Growth, Problems and Solutions. International Journal of Human Computing Studies, 3(1), 141-143.
16. Abdugafurovich, T. T. (2022). ЁШЛАРДА СОҒЛОМ МАФКУРА ВА ВАТАНПАРВАРЛИК ТҮЙФУСИНИ ШАКЛАНТИРИШ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 846-849.
17. Турғунбаев, Т. А., & Каримов, Ў. У. (2020). Ҳамма Нарса-Фронт Учун, Ҳамма Нарса-Галаба Учун!(Иккинчи Жаҳон Урушида Қозонилган Фалабанинг 75 Йиллигига Бағишлиланади). Интернаука, (19-4), 52-53.
18. Abdugafurovich, T. T., & Shokhmukhammad, M. (2021). THE ROLE OF EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM IN



EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(9), 126-130.

6. Abdugafurovich, T. T. (2021). The importance of pedagogical ideas in the formation of youth. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1066-1069.